

Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritar.

Kuch adolatdadir.

Yaxshini yomon kunda sina.

Qo'rqmasang yov qochar.

3.Yakuniy qism(xulosalash va baholash):

- Rivoyatdan qanday xulosaga keldingiz?

Fikrni davom ettiring: *"Men bugun darsda ... bilib oldim."*



Uyga vazifa: Amir Temur bobomiz haqida ma'lumotlar to'plang.

Rivoyatning mazmunini so'zlab bering.

13-mavzu: Mirzo Ulug'bek

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni Abdulla Po'latovning "Mirzo Ulug'bek" she'ri bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: buyuk bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: she'rni ifodali o'qishga va qofiyadosh so'zlarni topishga o'rgatish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: mavzuga doir rasmlar, rag'bat kartochkalari.

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-Mavzuga qiziqtirish:  "U kim, bu nima?' o'yini

O'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy zanjirlarni bog'lashni o'rgatishga yordam beruvchi o'yin faoliyat turi.



Kerakli materiallar:

Savollar yozilgan kartochkalar yoki doska.

O'tkazilishi:

 O'quvchilarga mantiqiy masalalar yechish haqida qisqacha tushuncha beriladi. Ushbu faoliyatda ular savollarga javob berish orqali yashirin shaxsni (yoki narsani) topishlari kerak bo'ladi.

 Masalan, quyidagi savollar yordamida yashirin shaxsni topish kerak bo'ladi (har bir savolga faqat "ha" yoki "yo'q" javob beriladi):

1. Bu shaxs mashhurmi?
2. U sport bilan shug'ullanadimi?
3. Bu shaxs kitob yozganmi?
4. U tarixiy shaxsmi?
5. U san'at sohasida faoliyat yuritganmi?
6. Uni qayerdan taniysiz?

 O'qituvchi bitta yashirin shaxsni (masalan, bobolarimizdan biri yoki biror taniqli shaxsni) tanlaydi va savollarni yo'llaydi.

 Yashirin shaxsni topish uchun mantiqiy savollarni tanlashga harakat qilish kerak.

Faoliyat oxirida o'quvchilarni o'z savollarini tahlil qilishga undash maqsadga muvofiq

Quyidagi so'zlarni birlashtiruvchi so'zni toping.



Merkuriy

Venera

Mars

Yer

- O'tilganlarni takrorlash. Amir Temur bobomiz haqida to'plangan ma'lumotlarni o'quvchilar so'zlab berishadi.

2. Darsning asosiy qismi:

☒ **Amaliy topshiriq:** Quyidagi ifodaning qiymatini hisoblasangiz, Mirzo Ulug‘bekning nechta yulduzning joylashuvini jadvalga kiritganini bilib olasiz.

$$1000+6*3=$$

Muhokama uchun savollar.

1. Avval qaysi amalni bajardingiz?
2. Sizda qanday natija chiqdi?
3. Kimning natijasi partadoshi bilan bir xil chiqdi?

☒ **Mavzuni tushuntirish.** Bobomiz Mirzo Ulug‘bek haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Mirzo Ulug‘bek— buyuk o‘zbek [astronomi](#), matematigi, o‘z davrining atoqli allomasi. Temuriylar davlatining hukmdori, Amir Temurning nabirasi. Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand gullab yashnadi. U Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasini qurdiradi.



Ulug‘bek ilm-fan olamida buyuk astronom sifatida mashhur. Bu borada u amalga oshirgan eng buyuk ish [„Zij-i jadidi Ko‘ragoniy“](#) deb nomlangan astronomik jadval sanaladi. Mirzo Ulug‘bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan, she‘rlar ham yozgan.

☒ **Matn ustida ishlash.** Muallif haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Abdulla Po‘latov Toshkentda dehqon oilasida dunyoga kelgan. U bolalar uchun quyidagi kitoblarni chop ettirgan: „Taka bilan qo‘chqor“, „Tekin tomosha“, „Yangi mehmon“, „Kichik sehrigar“, „To‘rt sarguzasht“, „Sehrgarning sarguzashtlari“, „O‘g‘limning o‘rtoqlari“ va boshqalar.

Abdulla Po‘latovning „Mirzo Ulug‘bek“ she‘ri o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi. She‘r matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. She‘r kim haqida?
2. She‘rda Ulug‘bek haqida nima deyilgan?
3. Sizningcha, koinot nima?

4. Uning olimlar yonidan joy egallashiga nima sabab bo'lgan?

☒ **She'rdagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.**

e'tirof etdi–yutuqlarini tan oldi.

halovat–tinch, osoyishta holat.

ko'zlamok–biror narsaga erishish uchun harakat qilmoq.

baxsh etmoq–bag'ishlamoq.

She'rni ifodali o'qish musobaqasi o'tkaziladi.

“Qofiyadoshini top” mashqi.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar aniqlanadi.(izlagan-ko'zlagan, sirlarin-ishlarin...)

☒ **Mashq daftari bilan ishlash. Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.**

O'quvchilar she'rdan o'zlariga yoqqan to'rtlikni ko'chiradilar.


Mashq daftaridagi jadvaldan Quyosh sistemasida aylanadigan sayyoralar nomini bildirgan so'zlarni topiladi. Bizning sayyoramiz Quyoshdan uzoqligiga ko'ra nechanchi o'rinda joylashganligi haqida so'raladi.

B	M	Q	D	P	O	Q	D	T	V
R	M	E	R	K	U	R	I	Y	F
C	S	A	Y	U	P	I	T	E	R
N	E	P	T	U	N	B	O	C	U
B	C	Z	M	A	R	S	I	V	G
O	Y	E	R	S	X	U	R	A	N
V	E	N	E	R	A	S	W	H	X
T	S	S	A	T	U	R	N	X	B

“KOINOT” so'zidan yangi so'zlar hosil qilinadi. (kon, ot, nok, kit, kino, in...)

Darslikdagi „Ranglar tilsimi” mashqi bajariladi.

-Ranglarga mos harflarni o'z o'rniga qo'ying va yashiringan so'zlarni aniqlang.





K	M	T
A	O	L
N	Y	I

O	L	I	M

o	l	a	m

o	m	o	n	a	t

o	y	m	o	m	o

k	o	i	n	o	t

t	i	l	l	o

3.Darsni yakunlash va baholash:

-Darsda qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?

-Biz bugun darsda nimalarni bajardik?

 **Uyga vazifa:** She'rni yod oling. Mirzo Ulug'bek haqida qisqacha ma'lumot to'plab yozing.